
ЁШЛАР БИЛАН УЧРАШУВЛАР БОШЛАНДИ

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga ko'ra, Farg'ona shahridagi 13-maktabda hududdagi ta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilari bilan shahar hokimi Vosiljon Nazarovning uchrashuvi tashkillandi. Unda shahar prokurori Dilmurodjon Qobulov hamda viloyatimizdagi oliy ta'lim muassasalari vakillari ham ishtirok etishdi.

Uchrashuv avvalida shahar hokimi har bir bitiruvchining taqdiri, ularning kelajakda o'z yo'llarini topishlarida shaxsan o'zi hamda barcha mutasaddi rahbarlar mas'ul ekanligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, ular bilan samimiy suhbatlashib, taklif va muammolarini eshitdi.

Tadbir davomida OTMlari vakillari tomonidan hujjat topshirish, kirish imtixonlari hamda ta'lim muassasalaridagi yo'nalishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Bitiruvchilar tomonidan yo'llangan savolarga mutaxassislar tushunchalar berishdi.

2022-06-27 09:59:10